

**TILSHUNISLIKDA TIL VA NUTQ TUSHUNCHALARINING  
MUNOSABATI**

***Shavkatjonova Rohatoy Shavkatjon qizi***

***Andijon Davlat Chet Tillari Instituti***

***Tel: +998902105271***

***E-mail: rohatoy0901@gmail.com***

**Annotatsiya:** Til va nutq insonlar jamiyatining asosiy aloqa vositasi sanalib, fikrlarni ifodalovchi, hissiyotlarni yetkazib beruvchi muloqot qilishning asosiy usulidir. Tilshunoslikda til va nutq tushunchalari o`rtasidagi munosabat murakkab va dolzarb hisoblanadi. Ushbu tushunchalarning tavfsiflanishi, shakllantirilishi shu bilan birga, ular o`rtasidagi o`zaro munosabatlar tilshunos olimlar tomonidan olib borilgan g`oya va tushunchalarga tayanadi. Ushbu maqolada hozirgi tilshunoslikdagi til va nutq tushunchalariga ta`sir etgan asosiy g`oyalarni ko`rib chiqamiz.

**Kalit so`zlar:** til, nutq, nutqiy faoliyat, tafakkur, aloqa vositasi.

**THE RELATIONSHIP OF THE CONCEPTS OF LANGUAGE  
AND SPEECH IN LINGUISTICS**

**Abstract:** Language and speech are the primary means of communication in human society, serving as the main vehicle for expressing ideas and conveying emotions. In linguistics, the relationship between language and speech concepts is considered complex and interconnected. The description and formation of these concepts, along with their mutual relationships, are central to the theories and ideas put forth by linguists. In this article, we will examine the fundamental principles that influence the concepts of language and speech in current linguistics.

**Key words:** language, speech, speech activity, thinking, means of communication.

**СООТНОШЕНИЕ ПОНЯТИЙ ЯЗЫКА И РЕЧИ В ЛИНГВИСТИКЕ**

**Аннотация:** Язык и речь являются основными средствами коммуникации в человеческом обществе, служа как основным средством выражения идей и передачи эмоций. В лингвистике отношения между концепциями языка и речи рассматриваются как сложные и взаимосвязанные. Описание и формирование этих концепций, а также их взаимосвязи, являются основными для теорий и идей, выдвигаемых лингвистами. В этой статье мы рассмотрим основные принципы, влияющие на концепции языка и речи в современной лингвистике.

**Ключевые слова:** язык, речь, речевая деятельность, мышление, средства общения.

XX asr boshqa fanlar taraqqiyotida bo‘lgani kabi tilshunoslik tarixida ham asosiy e’tiborning obyektga substansional nuqtai nazardan yondashuvdan struktur-funksional nuqtai nazardan yondashuvga o‘tishi bilan ta`kidlanadi. Shu sababdan ham , dialektik munosabatlarni ta`riflash va ularni tilshunoslik bilan bog‘lab, til va nutq munosabatlarining mohiyatini ifoda etish Yevropa tilshunos olimlari tomonidan tadqiqot ishlari rivojlandi. Til va nutq tushunchalarining o`zaro munosabatlari hamda ularning xususiyatlarini o`rganish, F. de Sossyur, V. fon Gumbold, I.A. Boduen de Kurtene, A.A. Potebnya kabi tilshunos olimlar tomonidan chuqur o`rganib chiqila boshlangan.

Ayniqsa, til va nutq o`rtasidagi farq va ularni tavfsiflashga bo`lgan qiziqish Ferdinand de Sossyur tomonidan keng o`rganilgan. Aynan, Ferdinand de Sossyur til va nutqni farqlab ularni bir-biridan ajratdi. Va Sossyurning til, nutq hamda nutqiy faoliyat haqidagi g`oyalari boshqa ko`plab tilshunos olimlarning fikrlariga ta`sir etdi.

F. de Sossyurning fikriga ko`ra til-tayyor mahsulot, nutq esa ong va irodaning individual harakati hisoblanadi. U nutqni ijtimoiy hodisa sifatida, tilni esa individual hodisa sifatida, ushbu ikki tushunchani bir-biriga qarama-qarshi qo`ydi. Ammo shu bilan birga Sossyur, u bir vaqtning o`zida yuqoridagi fikriga ko`ra ushbu ikki tushunchani bir-biridan ayirsa, ularning bir-biriga zaruriyatini ham aytib o`tdi. “Til shakllanishi uchun nutq zarur” – deya ta`kidladi.

Ammo tilshunos olim Sherba Sossyurning g`oyalaridan farqli o`laroq, til tizimi, til materiali va nutqiy faoliyat bir deya ta`kidladi. Uning fikricha, nutqiy faoliyat til materialiga asoslanib, til tizimining o`zgarishiga sabab bo`ladi, til tizimi esa til materiali tarkibiga kiruvchi hamda individual nutqda namayon bo`luvchi narsadir.

Keyinchalik, ushbu tushunchalar yanada chuqurroq o`rganila boshlangandan so`ng, til va nutq tushunchalari ularning tuzilishi haqida yangi g`oya va tushunchalar paydo bo`ldi. Tilning dinamik g`oyasining paydo bo`lishiga esa N. Xomskiyning transformatsion-generativ grammatikasi sabab bo`ldi.

I.A. Boduen de Kurtene o`z ilmiy faoliyatining dastlabki paytlarida tilni aqliy hodisa deya ta`riflab, individual tilning mavjudligi haqida yozgan. Keyinchalik esa u tilni psixojitmoiy hodisa deya tarifladi. “ Til barcha ijtimoiy yoki psixojitmoiy ko`rinishlar ichida eng sodda, eng boy va shuningdek, u har bir insonning aqliy dunyosida doimiy mavjuddir”,- deya takidlaydi I.A. Boduen de Kurtene . Ushbu olimning fikricha, tilni ko`rib chiqishda uni tafakkur bilan bog`liq ravishda o`rganish kerak: “Til yoki inson nutqi ham alohida shaxsning, ham butun bir guruh a`zolarining turli dunyoqarashlari, kayfiyatlarini aks ettiradi.

V.A. Zvegintsev nutqni aloqa vositasi, tilni bo`lsa “semantik tarkibni diskretlashtirish” deb bilgan.

F.M. Berezina va B.N. Golovin o`z asarlarida **til -nutq dixotomiyasini talqin qilish tamoyillarini keltirib** o`tgan. Til “lingvistik materialdan abstraktlashtirishda,

ularning kommunikativ tayyorgarligidagi aloqa belgisi birliklariningmajmui va tizimi” sifatida, nutq esa “muloqot aktidagi muayyan til materialidagi aloqa belgisi birliklarining ketma-ketligi” sifatida talqin qilingan.

A.I. Smirnitskiy til va u haqidagi bilimlarni farqlash bilan bирgalikda til va nutqda turli xil psixik hodislarni ko`rib chiqgan. Uning fikricha, til nutqda to`liq ifodalanadi.

A.A. Potebnya o`z ishining katta qismini tilni aniqlash muammosiga ba`g`ishlagan. Olimning nazariyasiga ko`ra, nutq tilning bir qismi bo`lib, til esa shaxsning tafakkurida va xalqning umumiy xotirasida mavjud. Ushbu muammo yuzasidan o`rganish davomida, A.A. Potebnya til va nutq o`rtasidagi farq haqida ham yangi tushunchalar ishlab chiqdi. “ Tilning o`ziga xos mazmuni mavjud, lekin u faqat boshqa mazmunning shakli bo`lib, uni shaxsiy-obyektiv deya atash mumkin, chunki u haqiqatda faqat shaxsga tegishli bo`lib, har bir shaxsda turli xil bo`ladi”. Natijada, A.A. Potebnya til va nutq tushunchalarini ajratdi. D.N.Ovsyaniko-Kulikovskiy Potebnya g`oyalariga qo`sildi hamda ularni rivojlantirdi.

“Til va nutq tushunchalarining tarixiy taraqqiyotdagi madaniy xizmati cheksiz. Biroq, tilning ifoda imkoniyatlari nutq orqali, nutq jarayonida ochiladi. Nutq bo`lmas ekan, tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi.

Buyuk mutaffakirimiz Alisher Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida til va nutq munosabatlarini shunday ifodalaydi: «Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir, agar nutq noma`qul bo`lib chiqsa tilning ofatidir».

Nutqiy faoliyat natijasida nutq shakllanadi, nutq elementlardan tuziladi va til elementlariga ajralib ketadi. Til elementlari esa nutq faoliyati uchun xizmat qiladi.

Til deyilganda ma`lum bir jamiyatning barcha a`zolari uchun avvaldan (oldingi ajdodlari tomonidan) tayyor holga keltirib qo`yilgan, hamma uchun umumiy, ya`ni qabul qilinishi va qo`llanilishi majburiy, fikrni shakllantirish, ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat etadigan birliklar hamda bu birliklarning o`zaro birikishi va bog`lanishini belgilovchi qonun-qoidalar yig`indisi tushuniladi.

Nutq deyilganda esa yuqorida ta`rif berilgan tilning til qobiliyati asosida biror shaxs tomonidan ma`lum bir aloqa maqsadi uchun qollanilish natijasi nazarda tutiladi. Nutqning umri qisqa bo`ladi, u faqat aytilgan paytda bo`ladi. U dialog, monolog, ayrim tekst, kitob ko`rinishlarida uchraydi. Til doimo nutqda yashaydi. Nutq tilning aniq namoyon bo`lishi, inson muloqotida ifoda etilishidir.

Nutq ayni bir shaxs mahsuli bo`lsa, til bir butun jamoa tajribasini to`playdi. Bundan tashqari, nutq tezlik, sekin-astalik, davomiylilik, tembr balandligi darajasi, aksent va boshqalar bilan tavfsiflanadi.

Til va nutq orasida turli dialektik aloqa va munosabatlar haqida ko`plab fikrlar bildirilgan bo`lib, ularni quyidagicha umumlashtirib izohlash mumkin.

| Til                      | Nutq                       |
|--------------------------|----------------------------|
| Umumiylit                | Xusiyilik                  |
| Imkoniyat                | Voqelik                    |
| Tayyorlik                | Hosilalik                  |
| Majburiylik              | Ixtiyoriylik               |
| Birliklari chegaralangan | Birliklari chegaralanmagan |

Til va nutq o`zaro aloqador hodisalar sanalib, til ijtimoiy, nutq esa xususiy xodisadir. Tilning barcha imkoniyatlari nutqda ifodalanadi.

Til va nutqning o`ziga xos jihatlari quyidagicha:

1. Til-munosabat asosi; nutq- munosabat ifodasi.  
2. Til jamiyatda shakllangan; nutq bo`lsa har bir shaxs tomonidan shakllantirilishi mumkin.

3. Tilning mavjudlik davri uzoq, va u ijtimoiy hayot bilan bog`liq; nutqning mavjudlik davri esa qisqa bo`ladi, u so`zlovchi tomonidan aytilgan davridagini mavjud bo`ladi.

4. Bir shaxs bir zamonning o`zida bir nechta tilga ega bo`la oladi; shaxsning nutqi esa faqat bitta bo`ladi, sababi nutq ma`lum vaqtida va ma`lum makonda yuz beradi.

5. Tilning hajmi noaniq va chegaralanmagan bo`lsa, nutqning hajmi aniq va u dialog, monolog, ba`zi hollarda matn holatlarida bo`ladi.

6. Til turg`un va qat`iy hodisa, nutq esa o`zgaruvchan va harakatdagi hodisadir.

Til va nutq tushunchalari tilshunoslik taraqqiy etayotgan davrdan boshlab hozirgi kunga qadar o`rganib kelinayotgan bo`lsada hali hanuz tilshunoslikda hal etilmagan muammolar va aniq ta`rif va tavsif kutayotgan holatlar mavjud.

### Xulosa:

Til va nutq munosabati inson aloqa markazi bo`lgan dinamik va murakkab bog'lanishdir. Til va nutqning o`rtasidagi munosabatlarni tushunish inson til va fikr oqimining qanday o`ziga xos usullarini aniqlash uchun muhim sanaladi. Til va nutq munosabatlarini tushunish orqali, biz inson kommunikatsiyasi asosiy mehanizmlarini tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tilshunoslik rivojlanib kelayotgan davrdan boshlab Sossyur hamda uning izdoshlari yaratgan ta`limot hamda hozirgi davr tilshunosligiga qadar bajarilgan til va nutq hodisalarining farqi hamda ularning o`zaro munosabatlariga oid fikrlar va ilmiy izlanishlarga qaramay, hozirgi kunda ham ushbu masalalar yuzasidan hal qilinishi lozim bo`lgan jihatlar ham mavjud.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Amirova T.A. Ol`xovinov B.A. Rodjestenskiy Yu.V Ocherki po istorii lingvistiki, M., 1975
2. Chomsky, N. (1957). Syntactic Structures. The Hague: Mouton.
3. Pinker, S. (1994). The Language Instinct. New York: HarperCollins.
4. Levelt, W. J. M. (1989). Speaking: From Intention to Articulation. Cambridge, MA: MIT Press.
5. Hickok, G. (2012). The Architecture of Speech Production and the Role of the Phoneme in Speech Processing. *Language and Cognitive Processes*, 27(7-8), 999–1021.
6. Friederici, A. D. (2011). The Brain Basis of Language Processing: From Structure to Function. *Physiological Reviews*, 91(4), 1357–1392.